

ISHONCH – INSONIY MUNOSABATLARNING NEGIZI VA IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI

Ustamirzayeva Nilufar Hasanboy qizi

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 22-14 guruh talabasi University of Business and Science

Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi

*Ilmiy rahbar: University of business and science nodavlat oliy ta'lim muassasasi
Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada ishonch har qanday ijtimoiy munosabatlarning tayanchi, mustahkam jamiyat poydevori ekanligi, uni yo'qotish oson, tiklash esa nihoyatda qiyinligi, shuning uchun har bir inson o'zaro ishonchni qadrlashi, uni asrab-avaylashi kerakligi. Axloqiy, psixologik va huquqiy me'yorlar doirasida ishonch madaniyatini shakllantirish orqali biz sog'lom jamiyat qurishimiz mumkinligini ishonch bu hayotimizdagi eng bebaho boyliklardan biri uni qadrlash, mustahkamlash va saqlash har birimizning insoniy burchimiz ekanligi to'g'risida tushunchalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ishonch, o'zaro munosabat, huquqiy asos, ishonch turlari, psixologik yondashuv, tarbiya, Konstitutsiya, ijtimoiy taraqqiyot, liderlik, shaxsiy rivojlanish, o'ziga ishonch.*

Аннотация: *в этой статье рассказывается о том, что доверие-это основа любых социальных отношений, основа крепкого общества, которое легко потерять, и невероятно трудно восстановить, поэтому каждый человек должен ценить взаимное доверие, беречь его. Убежденность в том, что, формируя культуру доверия в рамках этических, психологических и правовых норм, мы можем построить здоровое общество, является одним из самых бесценных активов в нашей жизни. Понимание того, что человеческий долг каждого из нас-ценить, укреплять и поддерживать его.*

Ключевые слова: *доверие, взаимность, правовая основа, виды доверия, психологический подход, воспитание, Конституция, социальное развитие, лидерство, личностное развитие, уверенность в себе.*

Ishonch deganda bu inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydigan ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u munosabatlarning barqarorligi va mustahkamligida katta rol o'ynaydi. Har qanday sog'lom jamiyat, tinch oila, mustahkam do'stlik aynan ishonch asosida quriladi. Bu tuyg'u jamiyatda taraqqiyotga zamin yaratadi, o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Ishonch yana bu insonlar o'rtasidagi eng muhim tuyg'ulardan biridir. Har qanday munosabat, xoh do'stlik, xoh oila yoki ish bilan bog'liq bo'lsin, ishonchsiz

mustahkam bo'lolmaydi. Ishonch — bu kimnidir rostgo'y, halol, mas'uliyatli deb qabul qilishdir.

Inson biror kishiga ishonch bildirganida, unga qalban yaqinlashadi, o'z fikrini bemalol ayta oladi. Bu esa o'zaro hurmat, mehr va do'stlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, bolalar va yoshlar tarbiyasida ishonch muhim o'rin tutadi. Bola o'ziga ishonilganini sezsa, o'zini qadrlaydi, o'ziga nisbatan ishonchi ortadi. Biroq ishonchni qozonish oson bo'lmasligi mumkin. Uni vaqt va harakat bilan tiklash kerak. Eng muhimi, ishonchni yo'qotmaslik. Chunki bir marta yo'qotilgan ishonchni qayta tiklash juda qiyin.

Ishonch turlari:

1. Shaxsiy ishonch – insonning yaqinlariga, do'stlariga yoki o'ziga bo'lgan ishonchi.
2. Ijtimoiy ishonch – davlat, tashkilotlar yoki tizimlarga bo'lgan ishonch.
3. O'ziga ishonch – shaxsning o'z imkoniyatlariga, bilimiga, maqsadlariga ishonishi.

Ishonchni shakllantirish oson emas. U vaqt, sabr, rostgo'ylik, adolat, so'zga sadoqat kabi fazilatlar bilan bog'liq. Ayniqsa, tarbiya jarayonida bola ishonch muhitida ulg'aysa, kelajakda u jamiyatga foydali, mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishadi. Psixologlar ishonchni ijtimoiy ong shakli deb hisoblashadi. Ishonchli munosabatlarda odamlar o'zini erkin, xavfsiz his qiladi. Bu esa rivojlanish, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni oshiradi. Pedagogika va psixologiya fanlarida ishonch o'quvchi-shogird munosabatlarining markazida turadi. Psixologlar fikriga ko'ra, ishonchli muhit bolada xavfsizlik hissini uyg'otadi, bu esa o'z navbatida tafakkur va ijodiy salohiyatning rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (26-modda) inson sha'ni va qadriyatini daxlsizligi e'tirof etilgan. Bu norma orqali fuqarolarning davlat tizimiga ishonchi mustahkamlanadi. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunlarda pedagog va tarbiyachilar bolaga nisbatan hurmat, e'tibor va ishonchli munosabatda bo'lishi lozimligi qayd etilgan. Bu me'yorlar tarbiya tizimida ishonchning huquqiy asosini tashkil etadi.

Mashhur fikrlar va maqollar:

- Konfutsiy aytgan: "Ishonch – bu boshqalarning sizga ergashishiga sabab bo'lgan birinchi qadamingizdir."
- Hadisda kelgan: "Kimgaki ishonch topshirilgan bo'lsa, u ishonchni ado etmog'i lozim." (Imom Buxoriy)
- O'zbek xalq maqoli: "Ishonch yo'q joyda hurmat bo'lmaydi."

Hayotiy misol:

Agar ota-ona farzandiga ishonmasa, uning har bir harakatidan shubhalansa, bola o'zini ishonchsiz, qadrsiz his qiladi. Natijada bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini so'ndiradi, ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, agar bola ishonch

muhitida ulg'aysa, u mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli va ijtimoiy faollikka ega shaxs bo'lib yetishadi.

Ishonch qadimdan insonlar o'rtasidagi munosabatlarda markaziy o'rin tutgan. Jumladan, qadimgi Sharq falsafasi va Islom tamaddunida ishonchga katta e'tibor berilgan. Imom G'azzoliy, Al-Farobiy kabi allomalar o'z asarlarida ishonchni jamiyatdagi barqarorlik, adolat va axloqiy mukammallikning asosi sifatida ta'riflashgan.

Masalan, Imom G'azzoliy o'zining "Ihyo ulumiddin" asarida shunday deydi: "Ishonch bu qalbdagi osoyishdalik va kongildagi xotirjamlikdir. Kimki so'zi va amali bilan ishonchni saqlasa unuh obro-e'bardavom bo'ladi. "Kimki ishonchli bo'lsa, uning so'zi kuchli va ta'sirli bo'ladi" deb yozgan. A.Navoiy esa oz asarida ko'p marotaba ishonch tushunchasini tilga olgan. Jumladan u shunday yozadi: "so'zingda sadoqat bo'lsa, qalbingda ishonch barqaror bo'lur. Ishonch yo'q joyda do'stlik g'animatga aylanur" deb ta'kidlagan. Konfutsiy insonlar ortasidagi ishonch haqida shunday degan: "Uch narsa davlatni barqaror tutadi: oziq-ovqat, armiya va xalqning hukumatga ishonchi. Agar bu uch narsadan biridan voz kechish kerak bolsa, avvalo armiyadan, song oziq ovqatdan voz kechish mumkin, lekin ishonch-eng asosiysi shuning uchun xalq ishonchsiz yashay olmaydi." Ibin Sino shunday yozadi: "Inson sogligining garovi-tanaga, dostlikning garovi- soz va ishonchning garovi-amallarga bogliq" deb takidlagan.

Milliy madaniyatimizda esa "so'zga sodiqlik", "yuzda yorug'lik, yurakda poklik" kabi qadriyatlar bevosita ishonch tushunchasini ifodalaydi. Bu qadriyatlar oila, qo'shnichilik va do'stlik kabi munosabatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida ishonch masalasi yanada dolzarblashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg'on axborotlar, feyk yangiliklar odamlar orasidagi ishonchni susaytiradi. Raqamli texnologiyalar orqali yolg'on ma'lumot tarqatish yoki shaxsiy ma'lumotlarni buzish holatlari ishonch inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy jamiyatda axborot madaniyati, axloqiy mas'uliyat va qonuniy nazorat vositalarining o'rni ham oshib bormoqda. Abu Nasr Farobiy ham oz asarlarida axloqiy mukammallik haqida soz yuritir ekan, shunday degan: "Ishonch-bu insonlar orasidagi aloqaning eng bardavom va mustahkam korinishidir. Agar jamiyatda ishonch bolmasa, uning ildizlari quriydi."

Ta'lim tizimida, ayniqsa maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ishonchli muhitni yaratish pedagogik faoliyatning asosiy shartidir. O'qituvchi va tarbiyachilarning bolaga ishonch bilan yondashuvi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bunday muhitda bola erkin fikr bildiradi, savol beradi, izlanadi, ya'ni ijodiy rivojlanadi. Ta'lim psixologiyasida bu "xavfsiz o'quv muhiti" deb ataladi.

Ishonch insonlarda liderlik fazilatlarining asosi hisoblanadi. Har qanday rahbar, u maktab direktori bo'ladimi yoki davlat rahbari, jamoaning ishonchini qozonmasa, muvaffaqiyatga erisholmaydi. Lider o'z jamoasi bilan halol, ochiq va adolatli

munosabatda bo'lsa, odamlar unga ergashadi. Teskari holatda esa boshqaruv inqirozga uchraydi.

Masalan, rahbar xodimlarning fikriga quloq tutsa, ularga ishonch bildirsa, ular ham mas'uliyatni his qilib, samaraliroq ishlaydi.

Psixologlar fikricha, ishonch shaxsning bolalikdagi tajribasiga bog'liq. Bola kichikligidan mehr ko'rgan, unga ishonilgan, so'zlariga quloq tutilgan bo'lsa, unda ijobiy "men" obrazi shakllanadi. Bu esa butun hayotiga ta'sir qiladi. Shuningdek, atrof-muhit, oiladagi munosabatlar, do'stlik, ijtimoiy aloqalar ham ishonchni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shaxsga nisbatan doimiy tanqid, shubha yoki bepisandlik ishonchni yemiradi. Shu bois, psixologlar har bir insonda o'ziga va boshqalarga nisbatan ishonchni mustahkamlash uchun qulay psixologik muhit yaratishni tavsiya etadi.

Rivoyat — Payg'ambar va ishonchli do'st

Bir kuni bir sahoba Rasululloh Muhammad (s.a.v.)dan so'radi:

— Ya Rasululloh, eng yaxshi inson kim?

U zot javob berdilar:

— O'ziga va boshqalarga ishonchli bo'lgan inson. Zero, ishonch bilan qurilgan do'stlik buzilmaydi, ishonchli insonning so'zi va amali hech qachon bir-biridan ajralmaydi.

Bu hadis shuni ko'rsatadiki, ishonch musulmon odobining eng muhim tamal toshidir.

2. Rivoyat — Imom G'azzoliydan saboq

Imom G'azzoliy shogirdlariga shunday nasihat qilgan:

— Bola ko'ngliga ishonch urug'i qadalmaguncha, undan katta inson kutmang. Ishonch siz bergan eng buyuk sovg'adir, bu sovg'a o'z vaqtida va sabr bilan tarbiyalanadi.

3. Hikmatli so'zlar to'plami:

Alisher Navoiy:

"So'z rost bo'lsa, ishonch o'z-o'zidan ortar. Ishonch ustida mustahkamlik, mustahkamlik ustida do'stlik bo'lur."

Abu Nasr Al-Farobiy:

"Ishonch — inson qalbining eng yaxshi ziynati."

Ibn Sino:

"Ishonch tanadagi yurak kabidir, u bo'lmasa, hayotning mazmuni yo'q."

Konfutsiy:

"Ishonch xalqni birlashtiradi, shubha esa parchalaydi."

4. Hayotiy ibrat:

Bir ustoz shogirdini sinab ko'rish uchun undan bir topshiriq so'raydi:

— Borib, mendan hech qachon ishonch qozonmaydigan biror narsa top.

Shogird uzoq izlab, bo'sh qo'l bilan qaytadi.

Ustoz unga kulib aytadi:

— Ko'rdingmi, dunyoda ishonchsizlikni sotib olib bo'lmaydi, lekin uni yo'qotish juda oson!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячиларнинг педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш. / Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2002.
2. Очилов М., Очилова Н. Ўқитувчи одоби. – Т.: «Ўқитувчи», 1997.
3. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. –44-б.
4. Бобаева, З. М. (2023). Педагогические особенности логического мышления младших школьников и пути его развития в процессе обучения. Экономика и социум, (1-1 (104)), 183-191.
5. Бобаева, З. М. (2021). Формирование толерантности у школьников в процессе изучения этнокультуры различных народов. In Диалог культур и толерантность общения (pp. 66-71).
6. Бобаева, З. М. (2025). МЕТОД МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ ПРОЦЕССОВ И ЯВЛЕНИЙ НА УРОКАХ ОКРУЖАЮЩЕГО МИРА. Экономика и социум, (1-2 (128)), 613-616.
7. Sheraliyeva, O., & Bobayeva, Z. (2025). O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGI ME'ZONLARINI VA MALAKAVIY AMALIYOTDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI. Инновационные исследования в науке, 4(1), 31-36.
8. Bobayeva, Z., & ali Mamadaliyev, M. (2024). SHAXSDA MALUMOTLARNI YODDA OLIB QOLISH XUSUSIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MECHANIZMLARI. Молодые ученые, 2(28), 124-126.
9. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO 'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 94-97.